

## O'SMIRLARDA SALBIY XULQ-ATVORNI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMILLARNI YENGIB O'TISHDA OTA-ONANING O'RNI

**Raximova X.S**

*"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti tayancha doktoranti*

**Annotatsiya:** Maqolada o'smirlarda salbiy xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi omillarni yengib o'tishda ota-onaning o'rni ya'ni o'smirlik davrida kechadigan salbiy holatlar, agressiya, tajavuzkorlik holatlarining kuzatilishi haqida so'z boradi. Ota-ona o'smir yoshadagi farzandlari bilan birga vaqt o'tkazmasligi yoki farzandlariga haddan tashqari qattiqqo'llik metodlaridan foydalanib ulardagi salbiy xulq-atvorga sababchi bo'lib qolishlari mumkinligi haqida ma'lumotlar ham keltirilgan. Bundan tashqari o'smirlardagi salbiy xulq-atvor psixologik yordam berishda turli usullardan foydalanish yo'llari ham tilga olingan.

**Аннотация:** В статье говорится о роли родителей в преодолении факторов, вызывающих негативное поведение подростков, то есть наблюдении негативных ситуаций, агрессии, агрессивности у подростков. Также приводятся сведения о том, что родители не проводят время со своими детьми-подростками или могут стать причиной негативного поведения своих детей, применяя методы излишней строгости. Кроме того, упомянуты способы использования различных методов оказания психологической поддержки негативного поведения подростков.

**Abstract:** The article talks about the role of parents in overcoming the factors that cause negative behavior in teenagers, that is, the observation of negative situations, aggression, aggressiveness in teenagers. Information is also given that parents do not spend time with their teenage children or they can become the cause of negative behavior in their children by using methods of excessive strictness. In addition, the ways of using different methods in providing psychological support for negative behavior in adolescents are also mentioned.

### **KIRISH**

Hozirgi davrda salbiy xulq – atvor ko'rinishlari yangilik bo'lmay qolgan, biroq bu xulq-atvor ko'rinishlarini o'rganish, texnika va texnologiya asrida jamiyatimiz taraqqiyotining dolzarb mavzularidan biri bo'lib bormoqda. Zamonaviy biz yashayotgan jamiyatda o'smir, uning oilasi va jamiyatning o'zaro ta'siri ijtimoiy munosabatlarning sifat jihatidan beqarorlashish sharoitida amalga oshiriladi, bu ijtimoiy hayotning turli sohalarida faqatgina ijobiy o'zgarishlarni emas, balki salbiy o'zgarishlarni ham keltirib chiqaradi.

O'smirlardagi salbiy xulq-atvor o'zgarishi, bir yondan, butun jahonda sodir bo'ladigan ko'p tomonlamali jarayonlarning natijasi bo'lsa, boshqa yondan, yaqin atrofdagi: oilada, mакtabda sodir bo'ladigan o'zgarishlardir. Oila va maktabning o'smirlik davrida foyda keltiradigan xatti-harakatlarni bajarish mumkin bo'la turib,

umumiyligini qabul qilingan me'yordardan chetga chiqishlarining namoyon bo'lishiga ta'sirini o'rganish bizga ushbu hodisaning mohiyatini yaxshiroq tushunishga, salbiy xulq – atvor xatti-harakatlarning ijtimoiy soha vakili sifatida rivojlanishining asosiy mexanizmi va tendentsiyalarini aniqlashga imkon beradi.

O'smirlarning ota-onalari o'zlarini yashagan davrida shakllangan va o'zlashtirgan ta'lif va tarbiya qadriyatlarni farzandlariga o'tkazmoqchi bo'ladilar. Shu bilan bir qatorda, oiladan tashqari muhitdagi jamiyatda yetarli darajada tartibga soluvchi va o'zini qonun qoidasi bor bo'lgan hukmron darajasidagi normalarga o'smirlar moslashish uchun qadriyatlar, ustanovkalar va munosabatlarini o'rganishni talab qiladi. Ohir oqibat, bu normalar o'smirlardagi qadriyatlar tizimida bo'linishni yuzaga keltiradi, bu o'z - o'zidan salbiy xatti-harakatlarning shakllanishiga zamin yaratishi mumkin.

O'smirlar ota – onalarning ularga bildiradigan ishonchlariga, qo'llab quvvatlashlariga katta ehtiyoj sezadilar. Ota – onalarning o'smirlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, yaxshi tarbiya berishi uchun eng ma'qul sharoit - bu ota – ona va o'smirning birgalikda mehnat bilan shug'ullanishidir. Agar ilk o'smirlilik yoshidagi bolalar yordamchi bo'lish rollaridan qoniqsalar, o'spirinlikka yaqinlashgan o'smirlar ota - onalar bilan baravar mehnat qila olayotganliklaridan qoniqadilar. Ota - onalar o'smirlar bilan do'stona, uni to'la tushungan holda va aql bilan rahbarlik qilsalar, bunga o'smirlar ijobiy qaraydilar, lekin bu rahbarlik kattaning xohish-istagi ustunligida kechsa, unday holda ular to'la qarshilik ko'rsatadilar. Bu qarshiliklar ko'p hollarda salbiy natijalarga, ba'zan depressiya va xulq atvordagi salbiy holatni ham yuzaga keltirishi mumkin. Bu holat ko'pincha ota - onasi avtoritar munosabatda bo'luvchi o'smirlarning oilalarida uchraydi. Bunday oilalardagi o'smirlar hayot yo'lida mustaqil ravishda harakat qilishlari, o'z maqsad, hohish va istaklarini amalga oshirishlari hamda qiyin mas'uliyatni o'z zimmalariga olishlari birmuncha qiyin kechadi

O'smirlar xatti – harakatidagi salbiy holatlar muammosi hozirgi kunda ham dolzarb masaladir. Maktab o'qituvchilari orasida salbiy xulq – atvor ko'rinishlaribor bo'lgan o'quvchilar yildan – yilga ko'payib borayotganligini, ular bilan ishslash qiyinlashayotganligini, ko'pincha o'qituvchilar ularni qanday boshqarishni bilmayotganliklarini ta'kidlamoqdalar. Chunki xuddi shu davrda o'smirlarda ko'pincha kuch ishlatish holatlari uchrab, u "berahmlilik", "janjalkashlik", "qattiqqo'llik", "g'azablanganlik" kabi ko'rinishlarga ega bo'ladi. Psixologiyada "tajovuz" atamasi turlicha talqin etiladi.

Tajovuzkorlikni tadqiq etgan ko'pchilik mualliflar unga salbiy baho berishni afzal ko'rishadi. Shuningdek, tajovuzkorlikka ijobiy tomondan ham qaraladi-ki, unda bola kuchli, chidamlı, irodali, baquvvat bo'lib shakllanishi ta'kidlanadi. Lekin o'smirning tajovuzkorligi ko'pgina holatlarda qahr – g'azabililikni, mehrsizlikni, ota – ona va atrofdagilarga hurmatsizlikni, ular bilan chiqisha olmaslikni, "ozod" bo'lishga intilishni, atuizm (boshqalarga befarqlik) holatlarini keltirib chiqaradi. Bu borada o'smirlardagi tajovuzkorlik darajasini qasddan qilinganligi yoki maqsadsiz, zarurat

natijasida yuzaga chiqqanligini ko'rishimiz mumkin. Bunday vaziyatda tajovuzkorlik xavf – xatar vaqtida paydo bo'luvchi va himoya xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi.

Psixologiyada o'smir – oddiy bola sifatida qaraladi. Salbiy xulq – atvor xususiyatlarini u, tarbiyaviy ishlardagi kamchiliklar, xatolar, uni o'rab turgan muhitning murakkabliklari natijasida orttiradi. Bu davrda nafaqat ilgari shakllangan psixologik strukturalarning tubdan qayta shakllanishi ro'y beradi, balki yangilari ham paydo bo'ladi, ongli harakat asoslari yuzaga kela boshlaydi. Ontogenezning o'smirlik davri – bu og'ir kechadigan yetuklikka o'tish bosqichi bo'lib, unda rivojlanishning qarama – qarshi tendensiyalari chambarchas bog'lanib ketadi. Buning natijasida ko'pgina o'smirlar axloqning salbiy shakllarini qo'llaydilar. Bunday vaziyatda pedagog, psixolog va ota – onalardan o'z vazifalarini amalga oshirishlarida yuqori mas'uliyatlilik talab qilinadi. Ayniqsa, psixolog va o'qituvchilar o'z faoliyatlari davomida bunday o'smirlar bilan psixodiagnostik va psixokorreksion ishlarni olib borishlari zarurdir. Bunda quyidagilarga amal qilinishi talab etiladi:

- o'smir xulq – atvorida yuzaga keladigan dezadaptatsiyaning ijtimoiy – psixologik diagnostikasini amalga oshirish;
- yosh davriga xos bo'lgan psixik, shaxs rivojlanishidagi sifat o'zgarishlarini o'rganib borish;
- yosh davridagi gormonal yetilish va buning natijasida yuz beradigan "krizis"larni nazoratga olish;
- tajovuzkor xulq – atvorni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishga yo'naltirilgan pedagog va ota – onalar hamkorligini tashkillashtirish;
- o'smirlarning hali to'liq shakllanib, ulgurmagan asab tizimi va psixik jarayonlarining osonlikcha jarohatlanishi va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- pedagog aynan o'smir bilan o'zaro muomala va munosabat usullarida ya'ni, emotsiional aloqani o'rnatish, kam bo'lsada erishayotgan yutuqlarini rag'batlantirib borish;
- psixoterapeutik ta'sirlar metodlari va texnikalaridan iborat bo'lgan relaksatsiya (chuqur nafas olish, muskullarni bo'shashatirish, musiqa sadosi ostida erkin harakat qilish va h.k.) mashqlar, rolli o'yinlarni uzlusiz olib borish kabi ta'sir vositalarini shakllantirish, rivojlanishdan iborat.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'smirlardagi aggressiv xulq – atvorning shakllanishida oilaviy muhitning o'rni benihoya muhimdir. Oiladagi qattiqko'llik, shavqatsizlik, mehr-muhabbatga ehtiyojlarni ota – ona tomonidan qondirilmasligi ya'ni deprivatsiya, jazolash jarayonida o'smirning o'z nomaqbul harakatini tushunib yetmasligi, oilada mo'tadil psixologik iqlim yaratilmaganligi kabi holatlar xulq – atvorni rivojlanishi va shakllanishini salbiy holatlarini yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari ota – ona o'smirga nisbatan adekvat munosabat bildirmasligi, o'smir bilan birgalikda faoliyat va mehnat qilmasligi, o'zidagi noto'g'ri ustanovkalar orqali bolaga psixologik jarohat yetkazib qo'yishi holatlarini to'g'ri psixologik yordam orqali bartaraf rtish mumkinligi ko'rib chiqdik.

### ADABIYOTLAR:

1. Ш.А.ДҮСТМУҲАМЕДОВА, З.Т.НИШАНОВА, С.Х.ЖАЛИЛОВА,  
Ш.К.КАРИМОВА, Ш.Т.АЛИМБАЕВА “ЁШ ДАВРЛАРИ ВА ПЕДАГОГИК  
ПСИХОЛОГИЯ”. ТОШКЕНТ- 2013. 327bet (151 – 152b)
2. Rean A.A. Podrostkovaya agressiya. M. 2000
4. To’laganova. G.Q. Tarbiyasi qiyin o’smirlar. T.: “Universitet” 2005
5. Эриксон Э. “Детство и общество”.( Эрикссон Э “Childhood and society)  
Ленато, Фонд “ Университетскауа книга”.1996 г. С 592